



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

Rajabiy o'zbek xalq musiqasini tizimli ravishda to'plash jarayonida xilma-xil ashula, qo'shiq janrlarini jamlash hamda yozish tajribasini boyitib va mukammallashtirib bordi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, so'z mulkinging sohibqironi Mir Alisher Navoiy hazratlarining dunyoni hayratga solayotgan asarlarini, akademik Yunus Rajabiy musiqiy merosini san'atshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilish, uning badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini o'rganish o'sib kelayotgan yosh avlodga yurtni sevishtirish, buyuk ajdodlar bilan faxrlanish, ularga munosib bo'litish, ona tilini ulug'lash, madaniy an'analarni qadrlash, hayotdan zavqlanish, milliy o'zlik va komillik ilmidan saboq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобур З. Бобурнома. –Т.: Юлдузча, 1989. – Б.74-144.
2. Жомий А. Рисолаи мусиқий. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 1998.
3. Ражабов И. Мақомлар. –Т.: Санъат, 2006. – Б. 29.
4. Ражабийнома. –Т.: Арт – Пресс, 2016. – Б. 110.
5. Сафар М. Алишер Навоий ва Юнус Ражабий. // Халқ сўзи, 1991 йил, 20 апрель.
6. Соипова Д. Мусиқа ўқитиш назарияси ва методикаси. Ўқув-методик қўлланма. –Т.: 2009.
7. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Т.: Маънавият, 1994. – Б. 155.
8. Эшонов А. То тузди Навоий ояти ишқ. Ражабийнома. – Т.: Арт –Пресс, 2016. – Б. 210.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил, 4 февраль, 25-сон.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. ЎЗА, 2020 йил, 26 май.
11. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Т., 2001.
12. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-ж. – Т., 2004.
13. Қўшонов М. Шеър ҳофиз талқинида. // Гулистон, 1997 йил, 1-сон. – Б.7.

“HAYRAT UL-ABROR”NING YANGI TADQIQLARI XUSUSIDA

Zarif Quvonov,

(PhD), dotsent, Navoiy davlat universiteti

zarif-78@umail.uz

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/CSIS8665

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonining istiqlool davri adabiyotshunosligida o'rganilishi borasida mulohazalar yuritilgan. Xamsashunoslikning zamonaviy tadqiq metodlari, dostoning diniy-ma'rifiy mohiyati talqini, poetikasiga doir yangicha qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xamsashunoslik, poetika, tasavvuf, talqin, fenomen, obraz.

ABOUT THE NEW RESEARCH OF "KHAYRAT UL-ABROR"

Abstract. This article explores the study of Alisher Navoi's epic poem Hayrat ul-abror within the context of literary scholarship during the period of Uzbekistan's independence. It examines contemporary research methodologies applied to epic studies, focusing on the interpretation of the poem's religious and didactic themes. Additionally, the article analyzes new

approaches to the poetics of Hayrat ul-abror, highlighting the evolving critical perspectives on its structure, symbolism, and cultural significance in modern literary discourse.

Keywords: *epic studies, poetics, sufism, interpretation, phenomenon.*

Alisher Navoiy nomi asrlardan beri xalqimizning birligi, buyukligi, faxr-u iftixori timsoli bo'lib kelmoqda. Shu paytga qadar necha-necha avlodlar bu buyuk zotning merosidan bahramand bo'lib o'sdi. Mutaфakkir ijodiyotini xalqimiz ma'naviyatiga yetkazish, bu nodir merosning badiiy qimmatini, uning sir-u asrorlarini ko'rsatib berish adabiyotshunosligimizning muhim tarmog'iga aylangan navoiyshunoslik sohasining muhim vazifasidir. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi uchun eng dolzarb ilmiy muammolardan biri Hazrat Navoiy ijodining mislsiz qirralarini tahlil va talqin qilish, Navoiyning jahoniy fenomenining joriylanishiga hissa qo'shishdan iborat.

"Hayrat ul-abror" didaktik ruhning ustuvorligi, obrazlar rang-barangligi, o'z davridagi ijtimoiy muammolarning bir qanchasining ro'y-rost ochib berilishi, xususan, turkiy tildagi ulkan obidaning ilk muqaddimaviy dostoni sifatida shoirning "Xamsa" yozishdan maqsad-muddaosini o'zida to'la-to'kis namoyon eta olishi va mavzu ko'lamining kengligi bilan "Xamsa"ning keyingi dostonlaridan ajralib turadi. Ustoz Oybek aytganidek, "Hayrat ul-abror" Navoiy dunyoqarashini o'rganishda nihoyatda boy va qimmatli materiallarni o'z ichiga olgan dostondir" [Oybek, 1979: 257]. Demak, mutafakkirning olam va odam, dunyo hodisotlari, diniy-irofniy qarashlar majmui... barcha-barchasi haqida badiiy-falsafiy qarashlari ifodasini topgan "Navoiy dunyoqarashining bayonnomasi" (N.Komilov)dir. Navoiyshunos N.Jabborovga ko'ra "ulug' shoir ijodining cho'qqisi bo'lgan "Xamsa"ning yangicha talqinlari yaratilishi zarur. Bizningcha, "Xamsa"ning kaliti bu – "Hayratu-l-abror". Keyingi to'rt doston mohiyatini tahqiq etish uchun "Hayratu-l-abror" to'laqonli ilmiy inkishof etilishi, boshqa dostonlar tadqiqida ham undan foydalanilishi zarur" [Jabborov, 2021: 9]. Shu boiski, buyuk beshlikning ilk dostoni – "Hayrat ul-abror" yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Quyida biz istiqloл davri xamsashunosligida "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiq va talqinlari haqida mulohaza yuritishni joiz topdik.

"Hayrat ul-abror"da diniy-ma'rifiy g'oyalar talqini. Milliy istiqloл bergan ulug' ne'matlardan biri bu – e'tiqod, o'zlik, ajdodlar merosini xolis o'rganish bo'ldi. Sobiq sho'ro adabiyotshunosligi Alisher Navoiyga gumanistik g'oyalar manbai, turkiy til fidoyisi, adabiyotshunos o'laroq munosabatda bo'ldi. Asarlaridan ijtimoiy g'oyalarni davrga moslashtirish talab qilindi. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida esa shoir asarlarining tasavvufiy qirralarini tadqiq etish, badiiyat shunchaki jamiyat talabalari mahsuli bo'lmay, san'at namunasi ekanligi asosiy masalaga aylandi.

Mustaqillikkacha bo'lgan nashrlarda tushirib qoldirilgan hamd va na'tlar talqini, munajatlar tahlili orqali Navoiy adabiy-estetik, diniy-ma'rifiy qarashlari o'rganila boshlandi. "Xamsa" tarkibiga kirgan har bir doston Alloh taolaga hamd, munajat va Rasululloh (s.a.v)ga na't bilan boshlanadi. Aqoid ilmiga oid haqiqatlar ana shu muqaddima qismlarining asosini tashkil etadi. Ulug' shoir har bir bayt, har bir misra zamiriga Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar mazmunini mahorat bilan singdirib yuboradi. Ayrim o'rinlarda ulardan iqtiboslar keltiradi" [Jabborov, 2021: 24]. Olim fikrini dalillashda "Hayrat ul-abror" ning avvalgi munajatida insonga berilgan "Karramno" keldi manoqib ango, "Ahsani taqvim"munosib ango. Baytini shunday talqin etadi: "Karramno" so'zi "Isro" surasining "Batahqiq Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo'ydik" mazmunidagi 70-oyatidan iqtibos. "Ahsani taqvim" jumlasini "Tiyn"

surasining “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik” mazmunidagi 4-oyatidan olingan. Hazrat Alisher Navoiy Alloh taolo insonni mukarram qilgani va yaxshi suratda yaratgani bilan bog‘liq Qur’oni karimdagi ikki ilohiy xabarni bir baytga jamlash orqali Odam farzandlarining maqomi yuksak ekani, shunga munosib hayot kechirmog‘i zarurligi masalasiga urg‘u bergan [Jabborov, 2021: 24]. “Xamsa”ning kaliti” maqolasida olim dostonning nomlanishidan bahs yuritadi hamda ma’qul variant sifati “Hayratu-l-abror” shaklini asoslab ko‘rsatadi. Akademik A.Rustamov ham asar nomini shu tarzda qo‘llaydi [Rustamiy, 2003]. “Bismillahir-Rahmonir-Rahim” kalimasining sharhiga bag‘ishlangan bobni nuqtadonlik bilan talqin qilar ekan: “Asarning mazkur bobida insonlar ana shu kalima (durri yatim– Z.Q) mohiyatiga ko‘ra ikki toifaga: ahli qabul va ahli radga bo‘linishi chuqur mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida yoritilgan, – deb ko‘rsatadi. – Muallif ta’rificha, Haq taolo dargohida ular ikkalasi ham mehmon. Farqi shundaki, ahli rad qahr aro bo‘lsa, ahli qabul – lutf aro. Qahr va lutf tushunchalari “Xamsa”ning o‘q ildizini tashkil etadi [Jabborov, 2021: 139]. “Xamsa”ning hamda sarlavhasi A.Rustamiy, yosh tadqiqotchi A.Malik tomonidan ham sharh va talqin etilgan [Rustamiy, 2003:64-72].

Ma’lumki, dostonning 17-bobi “Ko’ngil ta’rifida” deb ataladi va shoir azalda Xoliqning maqsadi Odami xokiy emas, balki ko’ngil ganjinasi ekanligini, shu bois kasbi kamolot aynan ko’ngilga, ruhga xosligini ta’kidlaydi:

*Solik ani argi muallo dedi,
So’fi ani olami kubro dedi.
Ka’baki, olamning o’lub qiblası,
Qadri yo’q andoqki ko’ngul ka’basi.
Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh* [Navoiy, 1991:73]

Solik va so’fiy uchun “olami kubro” bo‘lgan ko’ngil, Xoliqning jilvagohidir. Tasavvuf bilimdoni Najmiddin Komilov “Ko’ngil o‘z sayri davomida barcha borliq, butun mavjudotning Allohga zikr aytishini, alloh nuri bilan yoritilganini ko‘radi. Jumladan, inson a’zolari ham o‘z Yaratuvchisiga tasbeh aytadi deb tasvirlaydi Navoiy. Bu bilan shoir aytmoqchiki, inson ko’ngli (ko’ngil bu – ruh) – Alloh yaratgan oliy xilqat, u ilohiy nur makoni” [Komilov, 2005: 8], – deydi.

Alisher Navoiy dunyoqarashi – diniy-tasavvufiy, ma’rifiy-falsafiy ham ijtimoiy qarashlari, ayniqsa, komil inson, ma’rifatli shaxs haqidagi mushohadalari dostonning birinchi va ikkinchi maqolotlarida o‘z ifodasini topgan. Ular mutafaakkir ijodining asosiy mohiyatini to‘la anglashga hizmat qiladi. Keyingi yillarda xamsashunoslikni bu jihatlar tadqiqiga e’tibor qaratganidan shuni anglash mumkinki, shoir badiiy tafakkur dunyosini teranroq anglashga yo‘l ochadi. “Xamsa” tarkibidagi na’tlarning o‘rganilishi ham yuqoridagi fikrlarimizni to‘ldiradi [Iskandarov, 2023].

“Hayrat ul-abror”ning tasavvufiy mazmun-mohiyati N.Komilov, M.Muhiddinov, I.Haqqulov, M.Imomnazarov, N.Jabborov tadqiqotlarida o‘z aksini topganini ko‘rishimiz mumkin.

“Hayrat ul-abror”ning tuzilishi, poetikasi va obrazlar olami.

Muayyan ijodkorning badiiy salohiyati va iste’dodi haqida so‘z borganda, uning tasvir obyekti sifatida nimalarni olgani emas, balki o’sha obyekt yoki predmetni qanday tasvirlagani muhim hisoblanadi. Shu ma’noda u yoki bu muallif ijodiga yoxud muayyan badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalamoqchi bo‘lgan g’oya qanday badiiy timsollar, poetik vositalar, badiiylik qonuniyatlari orqali ifodalanganiga diqqat

qaratilgan. Adabiy asarning badiiy jihatdan yetukligiga birlamchi asos voqelik, deb ko'rsatadi A.Rustamiy va ikkinchi asosi sifatida: "Adabiy asarning badiiyligi tabiat yaratgan mavjudot va mahluqotdagi go'zallik singaridir. Farqi shundaki, badiiylilik sun'iy, ya'ni inson yaratgan go'zallikning bir turidir. Lekin sun'iy go'zallik ham yetuk bo'ligi uchun tabiiy go'zallikka xos xossalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu xossalar badiiy yetuklikning ikkinchi asosini tashkil qiladi" [Rustamiy, 2003:45], – deydi. Demak, badiiy asarning qurilmasi, ya'ni kompozitsion butunligi, poetik mukammalligi uning to'kisligini ta'min etadi.

"Hayrat ul-abror" "Xamsa"ning boshqa dostonlaridan farqli ravishda bir necha qasidalar, hikoyalar majmuasidir, – deb ko'rsatadi tadqiqotchi N.Sharipova. – Dostonda epik tasvir emas, falsafiy talqin ustunlik qiladi, muallifning ta'rif va tavsiflari yetakchi rol o'ynaydi, syujet va voqealar bayonini shoirning fikr-u qarashlari boshqarib turadi [Sharipova, 2021:16].

Xamsashunoslikda keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda dostonlarning poetikasi masalasi, jumladan, obrazlar tizimi, kompozitsion tuzilishi, strukturasini, xronotop, balog'at, germeneytik, vazn va qofiya xususiyatlari hamda til va uslub masalalarini o'rganishga ko'proq e'tibor berilganini ko'rishimiz mumkin. Istiqlool davri navoiyshunosligida birgina, "Hayrat ul-abror" dostoni asosida bir qancha dissertatsiyalar yaratildi [Muhiddinov, 1995]. Mazkur doston an'anaviy xamsanavislikning ilk dostonlari ruhida yozilgan bo'lib, unda ulug' shoirning o'ziga xos g'oyaviy-badiiy kashfiyotlariga ham salmoqli o'rin berilgan. Bu kashfiyotlarning mohiyatini to'la anglash uchun salaflar xamsalarining ilk dostonlari bilan "Hayrat ul-abror"ning poetik xususiyatlarini qiyosiy-tipologik yo'sinda o'rganish, Navoiy dostoning o'ziga xos strukturasini, syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar tizimining g'oyaviy-badiiy ifodasidagi poetik vazifalarni aniqlash, komil inson tushunchasining birinchi masalaga ko'tarilgani atoqli olim M.Muhiddinovning doktorlik dissertatsiyasida o'rganilgan bo'lsa, dostonning struktural qurilishi, hikoyatlarning o'rni va kompozitsion jihatlari, badiiyat masalalari hamda til xususiyatlari N.Sharipovaning tadqiqotida o'rganilgan.

Ma'lumki, jahon adabiyotshunosligida struktura va struktural poetika xos tadqiqotlarda matnning butunligini tashkil etgan har bir unurning (sarlavha, so'z, jumla va boshq) badiiy vazifasini ochib berishga qaratilgani bilan ahamiyatli. N.Sharipova "Hayrat ul-abror"ning kompozitsion qurilishidan kelib chiqib, dostonning tarkibiy asoslarini belgilagan. Asarning arxitektonikasini basmala (1-bob), hamd (2-bob), 4-munojot (3-6 bob), 5 na't (7-11 bob), salaflarga munosabat (12-13 bob), so'z ta'rifida (14-15 bob), hukmdorlar madhi (16-bob), ko'ngil ta'rifi (17-bob), uch hayrat (18-20 bob), Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror madhi (21-bob) kabi kirish manbalardan so'ng maqolotlar (1-20) berilib, ularning doston semantik qurilishidagi o'rni, poetik vazifasi tahlil etiladi. Hamd, munojot, na't va hayratlarning ma'rifiy-irfoniy mohiyati, asar strukturasidagi pozitsiyasi, shoir estetik idealini ifoda etish, doston semantik qurilishini shakllantirish singari muhim vazifa ekanligi, ularning "kirish boblar", "muqaddimaviy boblar", "ilova xarakteridagi boblar" emasligi, xususan, *hayratlar* dostonida asosiy semantik qatlamni, g'oyaviy-badiiy markazni tashkil etishili tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan.

Adabiyotshunos T.Xo'jayev "Navoiy "Xamsa"si:obraz, badiiyat va mohiyat" nomli monografiyasida dostonidagi obrazlarni: payg'ambarlar obrazi, avliyo, so'fiy, shayx, umuman diniy tushuncha bilan bog'liq siymolar, tarixiy shaxslar timsoli (hukmdorlar,

olimlar va hakimlar, shoirlar, turli toifa, kasb-hunar va amal egalari), mifologik obrazlar (ezgulik, yovuzlik miflari, abadiy tiriklar (o'lmaydiganlar) obrazi), ishq-muhabbat bilan bog'liq an'anaviy adabiy qahramonlar hamda afsonaviy qahramonlar obrazi sifatida tasnif qiladi [Xo'jayev, 2023:7]. N.G'afforovning "Alisher Navoiy "Xamsa"sida so'fiylar timsoli" mavzusidagi dissertatsiyasida ham so'fiylar, tarixiy-tasavvufiy shaxslar, mohiyatan tasavvuflashgan siymolar, Xoja Bahouddin, Hoja Ahror, Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr va boshqa ulug' siymolarning navoiyona talqinlari o'rganilgan. Olim so'fiylar timsolini ikkiga: tarixiy hamda ramziy ajratib, tarixiy siymolarning o'n ikkitasi "Hayrat ul-abror"da zikr zikr etilishi, ramziy timsollar esa "Xamsa"ning qolgan dostonlarida uchrashi va bundan obrazlarga pirlik sifatleri aks etgan payg'ambarlar, murshid sifatida talqin etilgan tarixiy shaxslar va mohiyatan so'fiylashgan siymolar kirishini ta'kidlaydi [G'afforov, 1999:122].

Alisher Navoiy ijodiyotini, jumladan, tafakkur nahri – "Xamsa"ni yangicha yondashuv, poetik mezonlarda tadqiq va tahlil qilish ijodkorning badiiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rnining nechoqli baland ekanligi, ijodining benazir qirralarini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул- аброр. МАТ. 7-том. Тошкент, 1991. – Б. 392.
2. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: "Adabiyot". 2021. – Б. 256.
3. Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. Тошкент, 1979. – Б. 462.
4. Рустамий А. Адиллар одобидан адаблар. – Т.: Маънавият, 2003. –Б.112.
5. Н.Комилов. Хизр чашмаси. – Т.: "Маънавият", 2005. – Б.320.
6. Муҳиддинов. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси ("Хамса"ларнинг биринчи дostonлари асосида) филол.ф.док. дисс... Тошкент, 1995. -Б. 290.
7. Хўжаев Т. Навоий "Хамса"си: образ, бадийят ва моҳият. Т.: 2023. – Б. 232.
8. Ғаффоров Н. Алишер Навоий "Хамса"сида сўфийлар тимсоли. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс... Тошкент, 1999. – Б.135.
9. Шарипова Н. Алишер Навоийнинг "Ҳайрат ул-аброр" дostonи поэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Самарқанд, 2021. – Б. 178.
- 10.Малик А. Алишер Навоийнинг илоҳ, олам ва одам ҳақидаги фалсафаси ("Хамса"даги ҳамд ва муножот боблар таҳлили) // <https://www.ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/akrom-malik-alisher-navoiyning-iloh-olam-va-odam-haqidagi-falsafasi/>

"XAMSA"DA "KAMPIR" OBRAZI TALQINI

Abdaliyev Farruxbek Namatjanovich,

Katta o'qituvchi, Jumabek Tashenev nomli universitet,

farux-1978@mail.ru,

Osmanova Gulnoza,

Jumabek Tashenev nomli universitet talabasi

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/DKE06218

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarini tushunishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan o'rinlar, "Xamsa" dostonlari tarkibidagi ayollar obrazining fe'l-atvoriga ko'ra turlari haqida so'z boradi. Shuningdek, "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" dostonida gavgdalandirilgan kampir obrazi hamda ularning turlicha talqini, o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Xamsa", "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", obraz, kampir obrazi.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhriddin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmiş iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622